
Developing students' professional and language competences through reading subject-specific texts in English (the case of the Geography degree programme)

Mamatkulova Fotima Ashirkulovna

mamatkulovafotima@gmail.com

Senior Lecturer at the Department of
Theoretical English Linguistics,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *This interdisciplinary study thoroughly investigates the essential pedagogical conditions, objective regularities, and innovative mechanisms of developing professional competence in geography students of higher education institutions through the systematic integration and reading of content-oriented (domain-specific) English scientific texts. The article provides a comprehensive, comparative-critical analysis of the specialized categorical apparatus, conceptual systems, and fundamental scientific sources, thereby determining the crucial didactic role and absolute efficacy of the English for Specific Purposes (ESP) methodology in training future highly qualified geography specialists. Furthermore, within the structured process of systematic and integrated work with authentic geographical texts, the study explicitly outlines the deterministic criteria for significantly enhancing students' proficiency in modern Geographic Information Systems (GIS) and global ecological-economic process terminology, their highly effective utilization of cognitive strategies in practice, and their advanced critical thinking capacity in objectively evaluating professional problems. Based on an integrative and synergetic approach, functional models for developing students' independent research skills are proposed.*

Keywords *Professional competency, competency, geographic education, ESP, subject-specific texts, reading strategies, cognitive engagement, geographical terminology, critical thinking, methodical mechanism*

Talabalarining kasbiy va til kompetensiyalarini ingliz tilida sohaviy matnlarni o'qish vositasida rivojlantirish (geografiya ta'lim yo'nalishi misolida)

Mamatkulova Fotima Ashirkulovna

mamatkulovafotima@gmail.com

Ingliz tili nazariy fanlar kafedrasida
katta o'qituvchisi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Ushbu fundamental va fanlararo tadqiqotda zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining geografiya yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani kontentga yo'naltirilgan, ya'ni chuqur sohaviy ingliz tili ilmiy matnlarni tizimli hamda maqsadli o'qish vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ob'ektiv qonuniyatlari hamda innovatsion didaktik mexanizmlari atroflicha tadqiq etiladi. Taqdim etilgan maqolada sohaga oid kategorial apparat, tushunchalar tizimi va fundamental ilmiy manbalar qiyosiy-kritik tahlil qilinib, bo'lajak geograf mutaxassislarni xalqaro andozalar asosida tayyorlashda maxsus maqsadlarga*

yo'naltirilgan ingliz tili (ESP) metodologiyasining o'ziga xos didaktik o'rni hamda samaradorlik darajasi ilmiy jihatdan determinatsiya qilinadi. Shuningdek, murakkab geografik matnlar ustida tizimli, integratsiyalashgan ishlar olib borish jarayonida talabalarning zamonaviy geo-axborot tizimlari (GIS) hamda global ekologik-iqtisodiy jarayonlar terminologiyasini muvaffaqiyatli o'zlashtirish, kognitiv strategiyalardan amaliyotda unumli foydalanish hamda professional muammolarni xolis baholashda tanqidiy fikrlash layoqatini yuksaltirishning deterministik mezonlari aniq ko'rsatiladi. Ushbu metodologik model asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar geografiya yo'nalishidagi bo'lajak mutaxassislarning akademik mobilligi, xalqaro ilmiy kommunikativ kompetensiyasi hamda global ta'lim makonida raqobatbardosh kasbiy faoliyat yuritish salohiyatini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Tizimli-strukturaviy va integrativ yondashuv asosida talabalarning mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning samarali pedagogik modellari taklif etiladi.

Kalit so'zlar Kasbiy kompetensiya, kompetensiya, geografik ta'lim, ESP, sohaviy matnlar, mutolaa strategiyalari, kognitiv faollik, geografik atamashunoslik, tanqidiy fikrlash, metodik mexanizm

**Развитие профессиональных
и языковых компетенций
студентов посредством чтения
отраслевых текстов на
английском языке (на примере
направления подготовки
“География”)**

Маматкулова Фотима Аширкуловна

mamatkulovafotima@gmail.com

Старший преподаватель кафедры
теоретических наук английского языка,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация В данном междисциплинарном исследовании всесторонне и системно изучаются ключевые педагогические условия, объективные закономерности, а также инновационные механизмы развития профильной профессиональной компетенции у студентов высших учебных заведений, обучающихся по направлению «География», непосредственно посредством внедрения систематического чтения контентно-ориентированных (узкопрофильных) научных текстов на английском языке. В представленной статье детально проводится комплексный сравнительно-критический анализ современного профильного категориального аппарата, устоявшейся системы понятий и фундаментальных научных источников, а также научно детерминируется дидактическая роль и реальный уровень эффективности методологии преподавания английского языка для специальных целей (ESP) в процессе непрерывной подготовки будущих высококвалифицированных специалистов-географов. Кроме того, в ходе организации систематической, целенаправленной и интегрированной работы над аутентичными географическими текстами подробно раскрываются детерминированные критерии успешного освоения студентами терминологии современных

геоинформационных систем (ГИС) и глобальных эколого-экономических процессов, эффективного использования когнитивных стратегий в практической деятельности, а также последовательного повышения способности к глубокому критическому мышлению при объективной оценке сложных профессиональных проблем. На основе синергетического и интегративного подходов авторами предлагаются эффективные педагогические модели формирования устойчивых навыков самостоятельной исследовательской деятельности современных студентов.

Ключевые слова

Профессиональная компетенция, компетенция, географическое образование, ESP, профильные тексты, стратегии чтения, когнитивная активность, географическая терминология, критическое мышление, методический механизм

Kirish

Zamonaviy bilimlar iqtisodiyotida iqlim o'zgarishi va geo-texnologiyalar (GIS) kabi global muammolarni hal qila oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirish ustuvor vazifadir. Jahon ilmiy-tadqiqot resurslarining asosiy qismi ingliz tilida jamlanganligi, geografiya yo'nalishi talabalarining global darajadagi kasbiy faoliyatga moslashishi va zamonaviy geo-mal'umotlardan mustaqil foydalanishida ingliz tili tayyorgarligini yetakchi omilga aylantirmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim paradigmasining strategik yo'nalishi sifatida bo'lajak mutaxassislarda kompetensiyaviy yondashuv mezonlarini shakllantirish hamda ushbu tizimni tizimli rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turlicha gnoseologik va professional paradigmalarda doirasida "kompetensiya" fenomeniga nisbatan differensial (turlicha) yondashuvlar qaror topgan (Искандарова, 2003). Chunonchi, mazkur tushunchaning milliy va mintaqaviy ilmiy-amaliy makonlardagi interpretatsiyalari hamda o'zaro mos kelmaslik determinanti tadqiqotchilar tomonidan tez-tez qayd etib o'tiladi. Ushbu konseptual nomutanosibliklarni inobatga olgan holda,

mazkur tadqiqotda dastlab "kompetensiya" kategorial apparatining semantik va mohiyatli strukturasi eksplikatsiya qilish (ochib berish) strategik vazifa qilib belgilandi.

Konseptual nuqtai nazardan, "kompetensiya" tushunchasi subyektning nostandart va transformatsion (o'zgaruvchan) vaziyatlarda samarali funksional faoliyatini kafolatlovchi kognitiv resurslar (bilim, ko'nikma, malaka) hamda uning individual-psixologik xususiyatlarining integrativ majmui sifatida interpretatsiya qilinadi (Горн, 2002).

G. Vayler hamda J. Lefstedning konseptual yondashuviga ko'ra, kompetensiya institutsional va ekstrinstitutsional ta'lim makonida shakllanadigan bilim, ko'nikma hamda malakalarning integrativ majmuidir (Вайлер, Лефстед, 2014). Shu daxldorlikda, tadqiqotchilar kompetensiyaviy taraqqiyotni shaxsning sotsiomadaniy tajribani integratsiya qilishi, intellektual salohiyatini yuksaltirishi hamda sotsial-axloqiy komponentlarini takomillashtirishini ta'minlovchi uzluksiz ta'limiy faoliyatning mahsuli sifatida tavsiflaydilar.

Mazkur tadqiqotchilar tomonidan "kompetensiya" va "malaka" kategorial apparatlarini differensizatsiya (farqlash) qilish zaruriyati asoslab beriladi. Mualliflar interpretatsiyasiga ko'ra, malaka muayyan

kontekstda moddiylashadigan konkret funksional harakat, ya'ni kompetensiyaning empirik (amaliy) ekvivalenti hisoblanadi. Malakalar bevosita verbal yoki faoliyatli kuzatuv obyekti bo'lsa, kompetensiya ana shu obyektiv natijalar interpretatsiyasidan kelib chiquvchi lingvodidaktik konstrukt (kategoriya) sifatida tushuniladi. Binobarin, kompetensiyaning amaliy namoyon bo'lish shakli bevosita malakalar orqali determinatsiyalashadi.

Ushbu nazariy asoslarga tayanib, "kasbiy kompetensiya" fenomenining semantik mazmunini eksplikatsiya qilish lozim. Kasbiy kompetensiya subyektning professional faoliyat samaradorligini ta'minlovchi, shu bilan birga, transformatsion (o'zgaruvchan) sharoitlarda avtonom (mustaqil) qaror qabul qilish hamda prognozlashtirish imkonini beruvchi ixtisoslashgan malakalar va individual-shaxsiy invariantlar sintezidir. Hozirgi kunda ushbu fenomenning shakllanish qonuniyatlari lingvodidaktika va psixologiya fanlari kesishmasida fundamental tadqiq etilmoqda.

Chunonchi, lingvodidaktiklar tomonidan mazkur tushuncha shaxsning ko'p qirrali atributlarini vizuallashtirish hamda uning sotsiopsixologik shakllanish dinamikasini yaxlit konseptualizatsiya qilish maqsadida keng qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy kompetensiya subyektning ixtisoslashgan faoliyatni muvaffaqiyatli realizatsiya qilish ehtiyojlaridan kelib chiquvchi kasbiy bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlarining tizimli majmuini ifodalaydi.

So'nggi pedagogik tadqiqotlar mazmun-mohiyatga asoslangan til o'rganish modelining (content-based learning) talabalar kognitivligi, kasbiy leksikasi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada geografiya fakulteti talabalarining kasbiy kompetensiyasini ingliz tilidagi sohaga oid matnlar ustida ishlash orqali shakllantirish mexanizmi tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy kompetensiya fenomenini tadqiq etishga nisbatan akademik doiralarda turlicha

yondashuvlar mavjud. Chunonchi, tadqiqotchi J. Raven kompetensiyaga subyektning samarali faoliyatini ta'minlovchi integrativ qobiliyatlar majmuasi sifatida yondashadi (Raven, 2001). Uning konseptual qarashlarida mazkur kategorial birlik ko'p komponentli tuzilmaga ega bo'lib, o'z ichiga kognitiv tayyorgarlik (bilim), sotsiomadaniy qadriyatlar, ichki motivatsion drayverlar hamda amaliy tajriba elementlarini qamrab olishi alohida ko'rsatib o'tiladi.

Taniqli tadqiqotchi Dudley-Evans lingvodidaktik tizimda ESP (English for Specific Purposes) fenomenini shunchaki funksional terminologik o'rgatish doirasida cheklamay, uni qat'iy strukturaviy arxitektonikaga ega va ixtisoslashgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan maqsadli ta'limiy tizimli model sifatida interpretatsiya qiladi. Olimning konseptual yondashuviga ko'ra, ESPning lingvometodik tabiati o'zaro daxldor bo'lgan uchta invariant komponent munosabatida eksplikatsiya qilinadi: ixtisoslashgan (kasbiy) mazmun, spetsifik kommunikativ pragmatika (maqsad) hamda autentik diskursiv materiallar.

1. Kasbiy mazmun (Professional content)

Dudley-Evans yondashuvida ESP kurslarining arxitektonikasi invariantli xarakterga ega bo'lib, an'anaviy til o'rgatish modellaridan farqli ravishda, bevosita muayyan professional-sohaviy kontekst ehtiyojlariga moslashtiriladi. Buni quyidagi amaliy modifikatsiyalarda kuzatish mumkin:

- Geografiya va Sayyohlik ingliz tili (English for Tourism and Hospitality),
- Yuridik ingliz tili (Legal English),
- Iqtisodiyot ingliz tili (Business English).

Mazkur metodologik yondashuvda lingvistik ta'lim jarayoni an'anaviy grammatik konstruksiyalar yoki umumiste'mol leksikasini o'zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim oluvchining istiqboldagi professional faoliyat sferasini belgilovchi ixtisoslashgan terminologik tizim va sohaviy diskursiv amaliyotlar bilan boyitiladi. Binobarin, maqsadli til obyekti mavhum kognitiv "umumiy bilim"

paradigmasidan chiqib, shaxsning kasbiy-funksional funksiyalarini realizatsiya qiluvchi instrumental vosita (instrumental tool) maqomiga ega bo'ladi.

2. Aniq kommunikativ maqsad (Specific communicative purpose)

ESP (English for Specific Purposes) metodologiyasining fundamental platformasi til o'rgatish jarayonini aniq utilitar (amaliy) maqsadlarga muvofiqlashtirishga asoslanadi. Bu tizimda har bir o'quv komponenti yoki diskursiv material muayyan geografik-kommunikativ vazifaga yo'naltiriladi: jumladan, xalqaro geoinformatsion tizimlar (GIS) bilan ishlash, global iqlim o'zgarishi bo'yicha ilmiy hisobotlarni tahlil qilish, ekologik monitoring natijalarini xalqaro miqyosda taqdim etish hamda kartografik ma'lumotlarni interpretatsiya qilish shular jumlasidandir. Binobarin, geografik ESP kurslarida mavhum "tilni o'zlashtirish" mezoni emas, balki "til vositasida sohaga oid funksional vazifalarni realizatsiya qilish" tamoyili markaziy o'ringa ko'tariladi. Natijada ta'lim oluvchi maqsadli tilni real professional va empirik muhitga yaqin bo'lgan professional-kommunikativ kontekstlarda operatsiyalashni o'rganadi.

3. Autentik materiallar (Authentic materials)

Dudley-Evans lingvometodik konsepsiyasida sun'iy ravishda modifikatsiyalangan yoki soddalashtirilgan o'quv matnlaridan voz kechib, real empirik muhitdan olingan autentik materiallardan foydalanish zaruriyati fundamental tarzda asoslanadi. Geografiya ta'lim yo'nalishi kontekstida ushbu resurslar sirasiga: xalqaro iqlimiy va demografik hisobotlar, ixtisoslashgan ilmiy maqolalar, geodezik hujjatlar hamda soha mutaxassislarining xalqaro simpoziumlardagi ma'ruzalarining audio-video yozuvlari kiradi. Bunday diskursiv manbalar ta'lim oluvchini real kasbiy-kommunikativ maydonga integratsiya qiladi hamda uni potensial professional-til muammolarini mustaqil hal etishga tayyorlaydi. Natijada talabada til tizimini shunchaki passiv dekodlash (tushunish) emas, balki uni

o'zgaruvchan kasbiy kontekstda dinamik operatsiyalash (qo'llash) kompetensiyasi rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Dudley-Evansning ESP paradigmasi til o'rgatish arxitektonikasini bevosita professional ehtiyojlar xarakteriga moslashtirishni ta'minlaydi. Mazkur tizimda lingvistik taraqqiyot dinamikasi: birinchidan, ixtisoslashgan sohaviy-geografik mazmun bilan interpretatsiyalanishi; ikkinchidan, qat'iy kommunikativ-pragmatik maqsadga yo'naltirilishi; uchinchidan, real amaliyotga asoslangan autentik o'quv resurslari vositasida realizatsiya qilinishi bilan xarakterlanadi.


Bu yondashuv ESPni umumiy ingliz tilidan ajratib turadigan asosiy ilmiy metodik asoslardan biri hisoblanadi (Dudley-Evans, 1998). Tarmoqli lingvodidaktika va geografiya ta'limi integratsiyasiga oid tadqiqotlar kontekstual terminologiyani o'zlashtirish hamda ixtisoslashgan o'qish strategiyalarini joriy etish talabalarning kognitiv-professional rivojlanishini ta'minlovchi yetakchi determinantlar ekanligini ko'rsatmoqda. Mazkur qonuniyatlarga tayangan holda, tadqiqot doirasida muallif tomonidan konseptual vizuallashtirilgan tizim – "Sohaviy matnlar orqali bo'lajak geografiya mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli" ishlab chiqildi va u quyidagi o'zaro daxldor komponentlar munosabatida spetsifikatsiyalanadi (1.1-rasmga qarang):



1.1-rasm.

Shuningdek, talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning dinamik modelini realizatsiya qilish maqsadida muallif tomonidan maxsus metodik mexanizm ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm o'quv jarayonini izchil va bosqichma-bosqich modellashtirish

orqali maqsadli ta'lim samaradorligini kafolatlaydi. Ushbu jarayon to'rt asosiy komponent – kognitiv-lingvistik, akademik-kommunikativ, faoliyatli-praktik va refleksiv-metocognitiv bosqichlari orqali amalga oshiriladi (1.2- rasmga qarang).



1.2-rasm.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot doirasida talabalarning professional-kommunikativ kompetensiyasini ixtisoslashgan (sohaviy) ingliz tili matnlari diskursi vositasida transformatsiya qilish jarayonlari kompleks yondashuv paradigmasida tadqiq etildi. Izlanishning metodologik arxitektonikasi nazariy-konseptual va empirik-amaliy metodlar garmoniyasiga tayanadi. Nazariy-gnoseologik darajada fundamental ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-kritik tahlil qilish, sintezlash, taksonomik tizimlashtirish va konseptual umumlashtirish usullari realizatsiya qilindi. Xususan, kategorial apparatni aniqlashtirish maqsadida "kompetensiya", "kasbiy kompetensiya" fenomenlari hamda ESP (English for Specific Purposes) yondashuvlarining lingvodidaktik asoslariga oid xalqaro va mahalliy manbalar bazasi interpretatsiya qilindi.

Amaliy qismda esa sohaviy matnlar asosida o'qish jarayoni tashkil etilib, ishlab chiqilgan metodik mexanizm – kognitiv-lingvistik, akademik-kommunikativ, faoliyatli-praktik va reflektiv-metocognitiv bosqichlari orqali talabalarning bilim va ko'nikmalari rivojlantirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatish;
- tajriba-sinov ishlari;
- diagnostik baholash;
- natijalarni sifat jihatdan tahlil qilish.

Mazkur yondashuv talabalarning kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari

Izlanish davomida qo'lga kiritilgan natijalar shuni tasdiqlaydiki, ingliz tilidagi ixtisoslashgan matnli resurslar ustida tizimli ishlash talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Xususan, tajriba guruhlarida quyidagi ijobiy korrelyatsiyalar aniqlandi: talabalarda kasbiy leksikani

tushunish va konseptualizatsiya qilish darajasi yuksaldi; o'quv materiallari bilan ishlashda kognitiv strategiyalardan unumli foydalanish adaptatsiyasi shakllandi; analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarni baholash va optimal qarorlar qabul qilish ko'nikmalari muvozanatlashdi; shuningdek, professional muhitda ingliz tilida erkin kommunikatsiyaga kirishish imkoniyatlari kengaydi. Bundan tashqari, loyihalashtirilgan metodik mexanizm nazariy kompetensiyalarni bevosita amaliy faoliyat (dala tadqiqotlari va geo-axborot tizimlari diskursi) bilan uzviy bog'lash orqali, zamonaviy ta'lim modelining natijadorligini kafobladi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi: birinchidan, ingliz tilidagi sohaviy matnlar ustida tizimli ishlash talabalarning kasbiy kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlovchi yetakchi va samarali didaktik manba hisoblanadi.

Ikkinchidan, kognitiv-lingvistik, akademik-kommunikativ, faoliyatli-praktik hamda reflektiv-metakognitiv bosqichlarni o'z ichiga olgan integrativ model asosida loyihalashtirilgan mutolaa (o'qish) jarayoni talabalarning instrumental va funksional resurslarini tizimli hamda evolutsion tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv paradigmalarni muvaffaqiyatli realizatsiya qilishda ESP (English for Specific Purposes) metodologiyasining lingvometodik prinsiplari yuqori pragmatik samaradorlik hamda empirik natijadorlikni kafolatlaydi.

To'rtinchidan, amaliyotga tatbiq etilgan mualliflik metodik mexanizmi bo'lajak mutaxassislarning professional faoliyatga bo'lgan adaptiv tayyorgarlik indeksini oshirish, ularning avtonom-analitik fikrlash hamda transformatsion sharoitlarda strategik qaror qabul qilish konseptual qobiliyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi ixtisoslashgan (sohaviy) matnlarni interpretatsiya qilish va tizimli o'qish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini

rivojlantirish – zamonaviy oliy geografik ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlovchi optimal va innovatsion pedagogik yechim (paradigmal yondashuv) sifatida e'tirof etilishi mumkin.

References:

1. Vayler, G., & Lefsted, Ya. I. (2014). *Teoreticheskie i prakticheskie aspekty psixologii i pedagogiki* (I. V. Andulyan, Ed.). Aeterna.
2. Gorn, A. M. (2002). K voprosu o professionalnoy napravlenosti v obuchenii inostrannym yazykam na spetsialnom fakultete. *Inostrannye Yazyki v Vysshey Shkole*, (1), 105–111.
3. Iskandarova, O. Yu. (2003). *Teoriya i praktika formirovaniya inoyazychnoy professionalnoy kommunikativnoy kompetentnosti spetsialista* (Doctoral dissertation, Russian State Library).
4. Dudley-Evans, T. (1998). *Developments in English for specific purposes: A multi-disciplinary approach*. Cambridge University Press.
5. Raven, J. (2001). *Competence in modern society: Its identification, development and release*. Oxford Psychologists Press.